



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari

Hoshimova Dilnoza

NamDPI. Maktabgacha ta'lim

yo'nalishi 3-bosqish talabasi

Annotatsiya: Maqolada bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish jarayonlarida maktabgacha ta'lim yoshi muhim hisoblanishi xaqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Ijodkorlik, ijodiy o'yinlar, tafakkur iste'dod.

Abstract: The article talks about the importance of preschool education in the process of developing creative thinking in children.

Key words: Creativity, creative games thinking, talent.

Uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi xozirgi kunda jadal rivojlanayotgan sohalardan biri xisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimining asosiy vazifasi esa-bolalarni har tomonlama maktab ta'limiga tayorlash, barkamol shaxs sifatida shakillantirishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim maktabgacha yoshdagi 3-7 yosh oralig'idagi bolalarni hayotida muhim jarayon xisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ta'lim tarbiya olishlariga juda katta ahamiyat berib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hozirgi vaqtda turli xildagi o'quv matiriyallari, kitoblar, o'yinchoqlar, didaktik vositalar, zamonaviy texnologiyalar bilan



boyitib borilmoqda. Bu ishlar albatta davlat nazoratiga olingan. Bulardan ko'zlangan maqsad esa- Har tomonlama rivojlangan ma'nan yetuk, komil insonni shakillantirib, ularni ta'limning keying bosqichi bo'lmish-maktab ta'limiga tayorlashdir.

Ijodkorlik-Har bir bola ijodkor iste'dodli har qaysi sohada. Tarbiyachi pedagogni vazifasi ularni erta aniqlashga, to'g'ri yo'naltirib berish sanaladi. Hozirgi shiddat bilan davom etayotgan hayotda ijodiy qobiliyatlar intelektning eng asosiy bosqichi sifatida tan olinishi kerak. Bundan keyingi 20-30yildan so'ng insoniyat ham jamiyatning qanday pog'onada rivojlanayotganligi yosh avlodning ijodiy qudrati, ularning salohiyatlari belgilab beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun ularga yaqin inson bu tarbiyachi pedagog va ota-onadir. Bular ham o'z navbatida ijodkor inson bo'lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini shakillantirishda ta'limiy faoliyatlar muhim xisoblanadi. Misol uchun: O'rta guruhda "Kuz" faslida didaktik o'yin "Barglarni yig'". Bu o'yin bolalarda konstruktiv ko'nikmalarni rivojlantiradi, fikrlash qobiliyati, diqqat, ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

O'yinning borishi:

Tarbiyachi bolaga qisimlardan bargni yig'ishni taklif qiladi, barglar turli rang va kattalikda ekanligiga e'tibor qaratadi.

-“Kuchli shamol esib, barglar xar tomonga uchib ketdi. Kel ularni birgalikda teramiz”. Bola bilan birgalikda barg bo'laklari yeg'ilib, butun barglar hosil qilinadi.

Bolalarning ko'rish xotirasi va tafakkuri mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun.

“Ortiqcha bargni top”

O'yinning borishi: Tarbiyachi bolaga ortiqcha bargni tanlashni taklif etadi. Bolalarning oldiga birorta umumiy belgisi, masalan kattaligi yoki rangiga ko'ra



birlashtirilgan barglar qo'yiladi. Ulardan biri bu belgiga ega bo'lmaydi va ortiqcha hisoblanadi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak atrofda olgan taasurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to'raligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taasurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqaradi.

Ijodiy o'yin turlari 3 xil bo'ladi.

1. Syujetli-rolli o'yinlar.
2. Sahnashtirilgan o'yinlar.
3. Qurish-yasashga doir o'yinlar.

Syujetli-rolli o'yin- Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks etiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi.

O'yinning syujeti- bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqea-hodisalar yig'indisidir. Rolli o'yinlarning mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatarga uning tuzilishi va o'yin shartlari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi tashabbuskorligi ham o'sib boradi. Avvalgi bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'lmagan guruhchalar 2-3 kishidan iborat bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlarida kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

Sahnashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yining quyidagi asosiy: niyyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan



vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z-o'zini uyishtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida quriladi: o'yin syujeti, ro'llar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Qurish-yasashga doir o'yinlar.

Qurish-yasashga doir o'yinlar ham ijodiy o'yinlar sirasiga kiradi. Ularda bolalar atrof muhitdagi buyumli dunyo haqidagi tasurotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar.

Qurish-yasashga o'yinlarida bir xil buyumlarning boshqalari bilan almashinuvi yuz beradi. Kichik va o'rta guruh yoshidagi bolalarda qurilish o'yinlari ro'lli o'yinlar bilan bog'lanib ketadi. Bu o'yinlar samarali faoliyat hisoblanib, bolalarda bunyod etilgan inshootni mavjud buyum va narsalar, inshootning qurilishiga asos bo'lib xizmat qilgan tasavvur bilan qiyoslash, taqqoslash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. U bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanlik rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar. Bu o'yinlarda ularning tafakkuri rivojlanadi. Ularda geometrik jisimlarning xususiyatlarini, ular bilan ishlashni, fazoviy nisbatlarni (Uzoq – yaqin , baland-past, o'ng-chap,uzun-qisqa, keng – tor.) amalda olib borishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda yana erkin mavzularda rasm chizish, rangli qog'ozlar, loy va bo'yoqlar bilan ishlash, ertak aytib berish va uni birgalikda davom ettirish, bolalarga hikoyalardan qiziqarli savollar berish “Boshqacha bo'lish mumkinmi?” “Agar sen sehrGAR bo'lsang nima qilarding “ va shu kabilar, oddiy musiqa asboblari yordamida ijodiy kompozitsiyalar yaratishi; tabiat bilan tanishtirishda ularda kuzatuvchanlikni oshirish; Misol uchun o'rta guruhda Ilm fan va tabiat markazlarida tajriba o'tkazish “erib ketdimi yoki cho'kdimi?”



Suv solingan bir nechta stakan tayyorlanadi. Barcha stakandagi suv ko'rinib chiqadi va uning shaffofligiga e'tibor qaratiladi. Har stakanga turli sochma materiallar: tuz, shakar, qum, don, tuproq solinadi. Aralashtiriladi. Qaysi modda suvda erib ketgani, qaysi modda stakan tubiga cho'kkani kuzatiladi. Bu moddalar aralashtirilgandan so'ng suv qanday o'zgaradi (shaffofligini yo'qotgani, xira bo'lib qolgani, kirlangani, rangini o'zgarganligi aytiladi).

Maktabgacha yoshdagi bolalar bir fikrlash usulidan boshqasiga osongina o'tishlari mumkin, ko'pincha moslashuvchan fikrlash deb araladi, bu erta bolalikdagi ijodiy fikrlashning bir qismidir.

Moslashuvchan fikrlash bolalarga o'z fikrlash va harakatlarini o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishga imkon beradi. Bundan tashqari bu qobiliyat rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijodiy fikrlash qobiliyatlari u bolalarga turli xil narsalarni o'rganishga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash va moslashuvchan fikrlash bir-birini to'ldiradi va ularning intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur- Bola tug'ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning unib - o'sib bilim va tajribalarning ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola dastlab tashqi olamni va undagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Ilk bolalalik yoshidagi bolalarni tafakkuri o'z-o'zicha, ya'ni stixiyali ravishda emas, balki katta odamlarning rahbarligida rivojlana boshlaydi. Bolalarda bir yoshga to'lib, ikki yoshga qadam qo'ygan davridan boshlab nomoyon bo'la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida, bolalar anchagina turmush tajribasiga ega bo'la boshlaydilar, ikkinchidan tili chiqqa boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshgach, o'zlariga yaqin narsalarni nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar. Ilk yoshli bolalar tafakkurining eng ko'zga tashlanib turadigan xususiyati shundaki, ular ayni chog'da ko'rib, idrok qilib turgan



narsalari haqida tafakkur qiladilar. Tafakkurning asosiy jarayonlari, ya'niy analiz, sintez, umumlashtirish, bolalarning narsalar bilan bo'lgan amaliy faoliyatlari jarayonida sodir bo'ladi.

Tafakkur- bolaning maktabgacha yoshdagi davrida tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi birinchidan bu yoshda bolalarda turmush tajribaning anchagina ko'payishi, ikkinchidan bu davr bolalar nutqining nisbatan yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Intellekt- Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellectual rivojlanish bola hayotidagi eng muhim jarayonlaridan biridir. Ushbu davrda "3-7 yoshgacha" bolalarning miyya faoliyati jadal rivojlanib, bilimlarni qabul qilish, o'rganish va tafakkur qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellectual.

1. Bilishga bo'lgan qiziqish.
2. Taqlid qilish qobiliyati.
3. Mantiqiy tafakkurning shakllanishi.
4. Til va nutq rivojlanishi.
5. Yodlash va xotira rivojlanishi.

Intellektual rivojlanishni qo'llab-quvvatlash usullari: Didaktik o'yinlar, ertaklar o'qsih va muhokama qilish, rivojlantiruvchi o'yinchoqlar, ijodiy faoliyat. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ota-onalar va pedagoglarning rolli juda muhimdir: Ularga ijodiy muhit yaratish, bolaning ijodiy qiziqishi uchun sharoit yaratish, bolani ijodini qadrlash, ular bilan birgalikda ijod qilish rasmlar chizish va boshqalardir.

Xulosa.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun ularning tabiiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlas, erkinlik berish va to'g'ri muhit yaratish muhimdir. San'at, o'yinlar, adabiyot va amaliy faoliyatlar orqali ularning tasavuri kengayadi va muammolarga



ijodiy yechim topishga qobiliyatli bo'lib voyaga yetadi. Ijodiy tafakkur rivojlangan bolalar kelajakda nafaqat, maktab, balki hayotning turli jabhalarida ham muvaffaqiyat qozonadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamov "Maktabgacha pedagogika", "Tafakkur" nashriyoti 2019- yil .
2. B.S.Abdullayeva, L.Z.Namazbooyeva. "Tajriba va eksperimentlar", "Evrika" 2022- yil.
3. "European Journal of Educational Research "Volume 13 Issue 3, 1303-131.ISSN; 2165-8714 Developing Creative Thinking in Preschool children; A Comprehensive Review of innovative.
4. Z.T.Nishonova, G.Z.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboyeva. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" Toshkent nashriyoti. 2017-yil.